

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI..... | 10 |
| Bauyetdinov M.J. | |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI..... | 18 |
| Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna | |
| TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI | 23 |
| O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur | |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 30 |
| Akbarova Shaxnoza Yakub qizi | |
| IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA ASALARICHILIK TARMOG'I SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 33 |
| Farmanov Jonibek Ziyadullayevich | |
| BILVOSITA SOLIQLARNI MA'MURIY BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI | 38 |
| Mansurova Arofatxon Shavkat qizi | |
| BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI XALQARO USULLAR VA MEZONLAR ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH..... | 43 |
| G'aybulloyev Suxrob Odil o'g'li | |
| IDEMPOTENT O'LCHOVLAR SIMPLEKSIDA ANIQLANGAN CHIZIQLI OPERATORLAR DINAMIKASINING EKOLOGIK MODELLASHTIRISHDAGI TATBIQI | 50 |
| Karimov Muzaffar Musaxonovich, Karimova Shalola Musayevna | |
| AGROTECHNICAL AND INNOVATIVE STRATEGIES FOR ENHANCING GRAIN PRODUCTION EFFICIENCY. | 56 |
| Turayeva Gulizahro | |
| BANKLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH | 60 |
| Aseмова Rano Jabbarbergenovna | |
| ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ СЦЕНАРНОГО АНАЛИЗА РАЗВИТИЯ АПК..... | 66 |
| Ли Марина Рудольфовна | |
| POLIMER VA UGLEROD NANOTOLALI MODIFIKATORLAR ASOSIDA BITUM KOMPOZITSIYALARINING REOLOGIK, MIKROTUZILMAVIY VA ADGEZION XOSSALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI | 70 |
| Hasanov Bahrom Bo'ronovich | |
| XORIJIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYANING TA'SIRI..... | 76 |
| Mamatramov Islom Mamanazarovich | |
| SULFIDLI POLIMETALL RUDALARNI SELEKTIV FLOTATSIYALASHDA YANGI AVLOD REAGENTLARINI QO'LLASHNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI TAHLILI..... | 79 |
| Xushvaqтова Zamira Hikmatulloyevna, Saidaxmedov Aktam Abdisamiyevich | |
| LOGICLABUZ: A BROWSER-NATIVE CO-SIMULATION PLATFORM FOR THE VIRTUALIZATION OF MULTI-MCU ROBOTIC SYSTEMS | 84 |
| Ergashev Adizbek Kamol ugli | |
| DUBAY IQTISODIYOTINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV BOSQICHLARI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI..... | 94 |
| Dilmira Abdumalikovna Shamusarova | |
| MINTAQADA TIBBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO MODELLARI..... | 99 |
| Yusupova Mehrigon O'ktamovna | |
| EKONOMETRIK MODELLARNI TANLASH VA ULARNING SIFATINI BAHOLASHDA INTEGRAL MEZONNI QO'LLASH | 104 |
| Turayev Baxtiyor Ergashevich | |



| | |
|--|-----|
| PHP VA SUN'YI INTELLEKT SINERGIYASI: LARAVEL ASOSIDA INTELLEKTUAL VEB-TIZIMLARNI LOYIHALASH ARXITEKTURASI..... | 110 |
| Jo'rayev To'xtasin, Abdusattarov Odiljon, Boymatov Mexrojiddin, Temirova Orifa, Yuldashboyev Shermuxammad | |
| CORPORATE GOVERNANCE QUALITY, FOREIGN DIRECT INVESTMENT, AND ECONOMIC GROWTH: A PANEL ECONOMETRIC ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES (2003–2024)..... | 119 |
| Yusufjon Pulatov | |
| TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI..... | 129 |
| Sheraliyev Olimjon O'ktam o'g'li | |
| МЕХАНИЗМ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ..... | 135 |
| Т.Т. Жураев | |
| XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDIY BANDLIKNI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI | 140 |
| Azadova Gulnoza Sardorbekovna | |
| YASHIL IQTISODIYOT, RESURS SAMARADORLIGI, TABIIY KAPITAL, AYLANMA IQTISODIYOT, EKOLOGIK SAMARADORLIK VA INKLYUZIV O'SISH TUSHUNCHALARINING ILMIY EVOLYUTSIYASI TAHLILI | 146 |
| Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li | |
| РОЛЬ АЛГОРИТМОВ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ НА СОВРЕМЕННЫХ РЫНКАХ КАПИТАЛА | 153 |
| Алиева Сусанна Сейрановна | |
| BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI.... | 160 |
| Ibragimov Aziz Turayevich | |



BUXORO VILOYATIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Ibragimov Aziz Turayevich

Osiyo xalqaro universiteti

"Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: azizibragimovj5@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyatida erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalar va yoshlar sanoat zonalar faoliyati hududiy iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda G'ijduvon EIZ hamda Buxoro-agro EIZning tashkil etilishi, ularning maqsad va vazifalari, shuningdek, 2025-yil uchun loyihalar soni, investitsiya hajmi, ishlab chiqarish, eksport va bandlik ko'rsatkichlari o'rganildi. Natijalar kichik sanoat zonalar Buxoro viloyatida iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri ekanini, yoshlar sanoat zonalar esa asosan ijtimoiy bandlikni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilayotganini ko'rsatdi. Tahlil hududlar kesimida sanoat faolligi notekis joylashganini, eksport va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari asosan Kogon tumani, Buxoro shahri hamda ayrim iqtisodiy faol markazlarda jamlanganini aniqladi.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, yoshlar sanoat zonasi, investitsiya, eksport, bandlik, Buxoro viloyati, hududiy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the activities of free economic zones, small industrial zones, and youth industrial zones in Bukhara region from the perspective of regional economic development. The study examines the establishment, objectives, and functional directions of the Gijduvan FEZ and Bukhara-agro FEZ, as well as the number of projects, investment volume, production, exports, and employment indicators for 2025. The findings show that small industrial zones serve as one of the main drivers of economic growth in Bukhara region, while youth industrial zones primarily support employment and youth entrepreneurship. The analysis also reveals an uneven territorial distribution of industrial activity, with production and export indicators mainly concentrated in Kogon district, Bukhara city, and several economically active areas.

Keywords: free economic zone, small industrial zone, youth industrial zone, investment, export, employment, Bukhara region, regional development.

Аннотация. В статье анализируется деятельность свободных экономических зон, малых промышленных зон и молодёжных промышленных зон Бухарской области с точки зрения регионального экономического развития. В исследовании рассмотрены вопросы создания СЭЗ «Гиждуван» и СЭЗ «Бухара-агро», их цели и задачи, а также изучены показатели количества проектов, объёма инвестиций, производства, экспорта и занятости на 2025 год. Результаты исследования показали, что малые промышленные зоны являются одним из основных драйверов экономического роста Бухарской области, тогда как молодёжные промышленные зоны преимущественно способствуют обеспечению занятости населения и развитию предпринимательской деятельности молодёжи. Анализ также выявил неравномерное территориальное распределение промышленной активности: показатели производства и экспорта в основном сосредоточены в Каганском районе, городе Бухаре и ряде экономически активных центров региона.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, малая промышленная зона, молодёжная промышленная зона, инвестиции, экспорт, занятость, Бухарская область, региональное развитие.

KIRISH

Hududlar iqtisodiyotini jadallashtirishda erkin iqtisodiy zonalar muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Ular investitsiyalarni jalb qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali mahalliy iqtisodiyotga ko'p yo'nalishtirish ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda sanoat zonalarini tashkil etish siyosati hududiy resurslardan samarali foydalanish, import o'rnini bosish, ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosatining muhim yo'nalishtirishlaridan biriga aylandi.

Buxoro viloyatida mazkur jarayon 2017-yilda G'ijduvon EIZ tashkil etilishi bilan yangi bosqichga o'tdi. Keyinchalik Buxoro-agro EIZ, kichik sanoat zonalar va yoshlar sanoat zonalar faoliyati viloyatda sanoatlashtirishning turli yo'nalishtirishlarini shakllantirdi. Mazkur maqolaning maqsadi Buxoro viloyatidagi EIZ va



sanoat zonalarini faoliyatini asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali baholash, hududiy nomutanosibliklarni aniqlash hamda kelgusidagi takomillashtirish yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda sanoat zonalarini faqat investitsiya va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha emas, balki hududiy konsentratsiya, bandlik samaradorligi, eksport salohiyati va ijtimoiy vazifalar nuqtayi nazaridan kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Erkin iqtisodiy zonalar nazariyasida ular iqtisodiy faollikni muayyan hududlarda jamlash, investitsiya xarajatlarini kamaytirish, klasterlashuv va aglomeratsiya effektlarini kuchaytirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Jahon tajribasida EIZlar eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirish, texnologiyalar transferi va bandlikni oshirish siyosati bilan bevosita bog'liqdir. Mahalliy sharoitda esa ular sanoat ishlab chiqarishini hududlar kesimida diversifikatsiya qilish, mavjud xomashyo bazasini chuqur qayta ishlash hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Buxoro viloyatidagi ilk erkin iqtisodiy zona O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-son Farmoni asosida tashkil etilgan. Mazkur hujjatda G'ijduvon EIZning asosiy maqsadi sifatida yuqori qo'shilgan qiymatga ega va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, viloyatning ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirish belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2017).

G'ijduvon EIZ faoliyatining ustuvor yo'nalishlari meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to'qimachilik, gilamdo'zlik, charm-poyabzal sanoati, ekologik xavfsiz kimyo mahsulotlari, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, elektrotexnika, mashinasozlik, avtomobilsozlik hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi tarmoqlarni qamrab oladi. Shuningdek, korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, mahsulotlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va markirovkalash bo'yicha ilmiy-ishlab chiqarish markazlarini tashkil etish vazifalari ham nazarda tutilgan (G'ijduvon EIZ, n.d.).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-iyuldagi PQ-3843-son qarori asosida Buxoro-agro EIZ tashkil etilgan. Mazkur zona zamonaviy issiqxona, bog'dorchilik va uzumchilik xo'jaliklarini rivojlantirish, gidroponika texnologiyalarini joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish hamda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2018).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik tahlil, taqqoslash, hududiy guruhlash, ulushlarni hisoblash va samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida Prezident farmon va qarorlari, G'ijduvon EIZning rasmiy ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasi ko'rsatkichlari asos qilib olindi. Asosiy indikatorlar sifatida ishga tushgan loyihalar soni, investitsiya hajmi, yaratilgan ish o'rinlari, ishlab chiqarish hajmi, eksport ko'rsatkichlari hamda 2026-yil prognoz parametrlari tanlab olindi.

Samaradorlikni baholashda bir loyiha hisobiga to'g'ri keladigan investitsiya hajmi, bir loyiha hisobiga yaratilgan ish o'rinlari soni, 1 mlrd so'm investitsiyaga to'g'ri keladigan ish o'rinlari soni, ishlab chiqarish va eksportning hududiy konsentratsiyasi kabi ko'rsatkichlar qo'llanildi. Bunday yondashuv sanoat zonalarining iqtisodiy va ijtimoiy natijalarini bir vaqtning o'zida baholash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro viloyatida tashkil etilgan kichik sanoat zonalarini va yoshlar sanoat zonalarining umumiy soni 48 tani tashkil etadi. Tahlillar viloyat hududida sanoat zonalarini notekis joylashganini ko'rsatadi. Eng yuqori konsentratsiya Buxoro shahri va Kogon shahrida kuzatilib, ushbu hududlarning har birida 5 tadan sanoat zonasi faoliyat yuritmoqda. Kogon tumanida esa 4 ta sanoat zonasi mavjud. Buxoro, Jondor, Olot, Peshku va Romitan tumanlarida 3 tadan zona joylashgan. Qorovulbozor va Shofirkon tumanlarida sanoat zonalarini sonining nisbatan kamligi ushbu hududlarda sanoat salohiyatini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Mazkur holat hududiy iqtisodiy siyosatda iqtisodiy konsentratsiya va ijtimoiy diversifikatsiya tamoyillaridan foydalanilayotganini anglatadi. Bunda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi sanoat zonalarini rivojlangan infratuzilmaga ega strategik hududlarda joylashtirilayotgan bo'lsa, yoshlar sanoat zonalarini hududlar bo'ylab muvozanatli taqsimlanib, aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat

qilmoqda (1-jadval).

1-jadval

Buxoro viloyatida kichik va yoshlar sanoat zonalari bo'yicha ishga tushgan loyihalar


| Hududlar | KSZ | | | YOSZ | | |
|--------------|------------|--------------------|-------------|----------|--------------------|-----------|
| | Soni | Qiymati, mlrd so'm | Ish o'rni | Soni | Qiymati, mlrd so'm | Ish o'rni |
| Buxoro sh. | 52 | 71.8 | 980 | 0 | 0 | 0 |
| Kogon sh. | 16 | 37.7 | 229 | 1 | 7.0 | 10 |
| Buxoro t. | 10 | 352.1 | 205 | 0 | 0 | 0 |
| Vobkent | 3 | 14.7 | 31 | 0 | 0 | 0 |
| G'ijduvon | 19 | 56.5 | 209 | 0 | 0 | 0 |
| Jondor | 17 | 64.9 | 177 | 1 | 1.7 | 13 |
| Kogon t. | 10 | 37.6 | 210 | 0 | 0 | 0 |
| Qorovulbozor | 2 | 26.7 | 35 | 0 | 0 | 0 |
| Qorako'l | 5 | 53.2 | 458 | 0 | 0 | 0 |
| Olot | 2 | 32.8 | 110 | 1 | 25.0 | 30 |
| Peshko' | 3 | 3.2 | 30 | 3 | 4.4 | 21 |
| Romitan | 5 | 16.0 | 42 | 2 | 1.0 | 5 |
| Shofirkon | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| Jami | 144 | 767.2 | 2716 | 8 | 39.1 | 79 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, G'ijduvon EIZ ma'lumotlari va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, kichik sanoat zonalari (KSZ) doirasida 144 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, ularga 767,2 mlrd so'm investitsiya yo'naltirilgan va 2 716 ta ish o'rni yaratilgan. Yoshlar sanoat zonalari (YOSZ) bo'yicha esa 8 ta loyiha amalga oshirilib, 39,1 mlrd so'm investitsiya o'zlashtirilgan hamda 79 ta ish o'rni yaratilgan. Shunday qilib, amalga oshirilgan loyihalarning qariyb 95 foizi, investitsiyalarning asosiy qismi va yaratilgan ish o'rinlarining qariyb 97 foizi kichik sanoat zonalari hissasiga to'g'ri keladi.

Samaradorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, bir loyiha hisobiga to'g'ri keladigan o'rtacha investitsiya hajmi KSZlarda 5,33 mlrd so'mni, YOSZlarda esa 4,89 mlrd so'mni tashkil etadi. Bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha esa sezilarli tafovut kuzatiladi: KSZlarda har bir loyiha hisobiga o'rtacha 18,9 ta ish o'rni to'g'ri kelsa, YOSZlarda ushbu ko'rsatkich 9,9 tani tashkil etadi. Shuningdek, 1 mlrd so'm investitsiya hisobiga yaratilgan ish o'rinlari soni KSZlarda 3,54 tani, YOSZlarda esa 2,02 tani tashkil qilmoqda. Bu holat kichik sanoat zonalari nafaqat faoliyat ko'lami, balki mehnat bozori samaradorligi nuqtayi nazaridan ham yuqori natijalarni ta'minlayotganini ko'rsatadi (1-rasm).

Hududlar kesimida ishga tushgan loyihalar




1-rasm. Hududlar kesimida ishga tushgan loyihalar soni¹

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, G'ijduvon EIZ ma'lumotlari va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida



2025-yilda Buxoro viloyatidagi kichik sanoat zonalarida (KSZ) ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 474,9 mlrd soʻmni, yoshlar sanoat zonalarida (YOSZ) esa 19,4 mlrd soʻmni tashkil etgan. Natijada umumiy ishlab chiqarish hajmining qariyb 96 foizi kichik sanoat zonalariga hissasiga toʻgʻri kelgan. Hududlar kesimida eng yuqori koʻrsatkich Kogon tumanida qayd etilib, bu yerda 178,7 mlrd soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Shuningdek, Buxoro shahri 131,0 mlrd soʻm va Kogon shahri 66,1 mlrd soʻm ishlab chiqarish hajmi bilan viloyatning yetakchi sanoat markazlari sifatida ajralib turadi.

Ishlab chiqarish hajmi boʻyicha oʻrta darajadagi natijalar Gʻijduvon, Buxoro tumani, Peshku va Olot tumanlarida kuzatilgan. Vobkent, Jondor, Qorovulbozor, Qorakoʻl hamda Romitan tumanlarida esa ishlab chiqarish hajmi nisbatan past darajada shakllangan. Shofirkon tumanida mazkur davr boʻyicha ishlab chiqarish koʻrsatkichi qayd etilmagan. Ushbu holat sanoat infratuzilmasining rivojlanish darajasi, investitsiya muhiti va logistika imkoniyatlarining hududlar kesimida turlicha shakllanganligini koʻrsatadi (2-rasm).




2-rasm. 2025-yilda sanoat zonalarida ishlab chiqarish hajmi²

Eksport koʻrsatkichlari Buxoro viloyatidagi sanoat zonalarining tashqi bozorlardagi ishtirok darajasi hali rivojlanish salohiyatiga ega ekanligini koʻrsatadi. 2025-yilda kichik sanoat zonalarida (KSZ) eksport hajmi 14,9 mln AQSH dollarini, yoshlar sanoat zonalarida (YOSZ) esa 1,1 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Umumiy eksport hajmining qariyb 93–94 foizi kichik sanoat zonalariga hissasiga toʻgʻri keladi. Hududlar kesimida eksport faoliyati yuqori darajada konsentratsiyalashgan boʻlib, Kogon tumanida 12,8 mln AQSH dollari miqdorida eksport amalga oshirilgan. Bu koʻrsatkich KSZlar eksportining taxminan 86 foizini tashkil etadi.

Buxoro tumanida 1,7 mln AQSH dollari va Kogon shahrida 0,4 mln AQSH dollari miqdorida eksport qayd etilgan. Boshqa hududlarda eksport hajmining qayd etilmagani ishlab chiqarishning asosan ichki bozorga yoʻnaltirilganligi yoki mahsulotlarning xalqaro standartlar hamda tashqi bozor talablariga moslashish jarayoni rivojlanish bosqichida ekanligini koʻrsatishi mumkin. Yoshlar sanoat zonalarida boʻyicha eksport faoliyati faqat Peshku tumanida kuzatilib, uning hajmi 1,1 mln AQSH dollarini tashkil etgan (3-rasm).

muallif tomonidan tuzildi.


2 Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, Gʻijduvon EIZ maʼlumotlari va Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



3-rasm. Eksport hajmi: 2025-yil natijasi va 2026-yil rejası³

Buxoro viloyatidagi kichik sanoat zonalarida yaratilgan ish o'rinlari hududlar kesimida sezilarli farqlanishni namoyon etadi. Eng yuqori ko'rsatkich Buxoro shahrida qayd etilib, bu yerda 980 ta ish o'ri yaratilgan. Shuningdek, Qorako'l tumanida 458 ta, Kogon shahrida 229 ta, Kogon tumanida 210 ta va G'ijduvon tumanida 209 ta ish o'ri tashkil etilgan. Ayrim hududlarda, xususan, Shofirkon tumanida sanoat zonalarini faoliyati doirasida yaratilgan ish o'rinlari qayd etilmagan. Bu holat mazkur hududlarda investitsiya loyihalarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va ishlab chiqarish maydonlarini tayyorlash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Ish o'rinlari yaratish darajasi investitsiya hajmi, loyihalarning yo'nalishi va tarmoq xususiyatlariga bevosita bog'liq. Mehnat sig'imi yuqori bo'lgan yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, mahsulotlarni qayta ishlash hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlarida bandlik darajasi nisbatan yuqori shakllanadi. Kapital sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlarida esa investitsiya hajmi katta bo'lishiga qaramay, yaratiladigan ish o'rinlari soni nisbatan kam bo'lishi mumkin (4-rasm).



4-rasm. Investitsiya va bandlik ko'rsatkichlari⁴

2026-yilda Buxoro viloyatidagi kichik sanoat zonalarida (KSZ) ishlab chiqarish hajmini 714,9 mlrd so'mga, eksport hajmini esa 25,4 mln AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilgan. Yoshlar sanoat zonalarida (YOSZ)

3 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, G'ijduvon EIZ ma'lumotlari va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

4 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, G'ijduvon EIZ ma'lumotlari va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



ishlab chiqarish hajmi 38,7 mlrd so'm, eksport hajmi esa 2,5 mln AQSH dollari darajasida belgilangan. Mazkur ko'rsatkichlar kelgusi yilda ham iqtisodiy faollikning asosiy qismi kichik sanoat zonalari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Jumladan, ishlab chiqarish hajmida KSZlarning ulushi qariyb 95 foizni, eksport hajmida esa 90 foizdan ortiq ulushni tashkil etishi kutilmoqda.

Hududlar kesimida 2026-yil uchun rejalashtirilgan ishlab chiqarish hajmining asosiy qismi Kogon tumani (279,2 mlrd so'm), Buxoro shahri (195,2 mlrd so'm), Kogon shahri (91,5 mlrd so'm) va G'ijduvon tumaniga (61,2 mlrd so'm) to'g'ri keladi. Eksport ko'rsatkichlari bo'yicha esa Kogon tumanida 19,4 mln AQSH dollari, Buxoro tumanida 3,0 mln AQSH dollari hamda Buxoro shahrida 1,0 mln AQSH dollari miqdoridagi eksport hajmi nazarda tutilgan. Ushbu ma'lumotlar eksport salohiyatining asosan bir nechta iqtisodiy faol hududlarda jamlanganligini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval
2025-yil natijalari va 2026-yil reja ko'rsatkichlari⁵

| Ko'rsatkich | KSZ 2025 | YOSZ 2025 | KSZ 2026 reja | YOSZ 2026 reja |
|-----------------------------|----------|-----------|---------------|----------------|
| Ishlab chiqarish, mlrd so'm | 474.9 | 19.4 | 714.9 | 38.7 |
| Eksport, mln AQSH dollari | 14.9 | 1.1 | 25.4 | 2.5 |
| Loyihalar soni | 144 | 8 | - | - |
| Investitsiya, mlrd so'm | 767.2 | 39.1 | - | - |
| Ish o'rinlari, nafar | 2716 | 79 | - | - |

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Buxoro viloyatida sanoat zonalari tizimi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki muhim vazifani bajaradi. Kichik sanoat zonalari investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish orqali hududiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Yoshlar sanoat zonalari esa iqtisodiy ko'rsatkichlar hajmi jihatidan nisbatan kichik bo'lishiga qaramay, yoshlar bandligini ta'minlash, kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hududlar o'rtasidagi tafovutlar aglomeratsiya va klasterlashuv nazariyalari asosida izohlanishi mumkin. Transport va logistika infratuzilmasi, elektr ta'minoti, mehnat resurslari hamda iste'mol bozorlariga yaqinlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlari nisbatan yuqori shakllanmoqda. Shu bilan birga, eksport faoliyatining asosan bir yoki ikki hududda jamlangani mavjud salohiyatni boshqa hududlarda ham kengroq rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. Tashqi talab va logistika sharoitlaridagi o'zgarishlar ayrim hududlarning eksport natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli sanoat zonalarining hududiy diversifikatsiyasini kuchaytirish istiqboldagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kamroq qamrab olingan hududlarda investitsiya loyihalari paketlarini shakllantirish, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish, standartlashtirish va sertifikatlashtirish xizmatlarini kengaytirish, eksportga yo'naltirilgan klasterlarni rivojlantirish hamda yoshlar sanoat zonalarining texnologik salohiyatini oshirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu chora-tadbirlar viloyatda iqtisodiy o'sish natijalarining hududlar bo'yicha yanada muvozanatli taqsimlanishiga xizmat qiladi.

Buxoro viloyatida sanoat zonalari samaradorligining hududlar kesimida turlicha shakllanishi, avvalo, infratuzilma ta'minoti, ishlab chiqarish maydonlarining tayyorligi, transport-logistika imkoniyatlari hamda xomashyo bazasiga yaqinlik darajasi bilan bog'liq. Kogon tumani, Buxoro shahri va Kogon shahri kabi hududlarda ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarining yuqori bo'lishi ularning iqtisodiy markazlarga yaqinligi, kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanganligi va investorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan izohlanadi. Bunday hududlarda aglomeratsiya effekti korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtiradi va mahsulotlarni bozorga yetkazib berish jarayonini jadallashtiradi.

Nisbatan past ko'rsatkichlarga ega hududlarda esa sanoat zonalari mavjud bo'lishiga qaramay, loyihalarni to'liq ishga tushirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjud. Bunday holat, ayniqsa, Shofirkon, Vobkent, Qorovulbozor va ayrim boshqa tumanlarda kuzatiladi. Ushbu hududlarda sanoat zonalari faoliyatini yanada faollashtirish maqsadida tayyor investitsiya loyihalari portfelini shakllantirish, muhandislik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar sanoat zonalarini rivojlantirishda alohida yondashuv talab etiladi. Chunki ularning asosiy vazifasi yirik eksport hajmlarini shakllantirishdan ko'ra, yoshlar bandligini ta'minlash, kichik ishlab chiqarish subyektlarini

5 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, G'ijduvon EIZ ma'lumotlari va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Shu bois YOSZlarda biznes-rejalar tayyorlash, marketing, buxgalteriya hisobi, elektron savdo, mahsulotlarni qadoqlash va sertifikatlashtirish bo'yicha konsalting xizmatlarini rivojlantirish ularning amaliy iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval
2025-yil natijalari va 2026-yil rejasining hududiy ko'rinishi⁶

| Hudud | 2025 ishlab chiqarish | 2026 ishlab chiqarish | 2025 eksport | 2026 eksport |
|--------------|-----------------------|-----------------------|--------------|--------------|
| Buxoro sh. | 131.0 | 195.2 | 0 | 1.0 |
| Kogon sh. | 66.1 | 93.7 | 0.4 | 0.6 |
| Buxoro t. | 20.2 | 27.1 | 1.7 | 3.0 |
| Vobkent | 1.8 | 2.2 | 0 | 0 |
| G'ijduvon | 37.0 | 61.2 | 0 | 0.8 |
| Jondor | 5.0 | 7.3 | 0 | 0 |
| Kogon t. | 178.7 | 279.2 | 12.8 | 19.4 |
| Qorovulbozor | 1.2 | 0 | 0 | 0 |
| Qorako'l | 2.2 | 3.3 | 0 | 0 |
| Olot | 29.0 | 43.7 | 0 | 0.6 |
| Peshko' | 17.9 | 29.7 | 1.1 | 2.5 |
| Romitan | 4.2 | 9.7 | 0 | 0 |
| Shofirkon | 0 | 0 | 0 | 0 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2026-yilda ishlab chiqarish hajmining o'sishi asosan Kogon tumani, Buxoro shahri va Kogon shahri hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur hududlar mavjud sanoat infratuzilmasi, ishlab chiqarish quvvatlari va logistika imkoniyatlaridan samarali foydalanib kelmoqda. Shu bilan birga, boshqa tumanlar uchun rejalashtirilgan ko'rsatkichlarning nisbatan pastligi hududiy diversifikatsiya imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Eksport ko'rsatkichlari bo'yicha ham Kogon tumani yetakchi mavqei saqlab qolmoqda. Shu bois eksport salohiyatini yanada kengaytirish maqsadida yangi eksport yo'nalishlarini rivojlantirish, mahsulotlarni xalqaro standart va sertifikatlar talablariga moslashtirish hamda logistika xizmatlari samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy jihatdan sanoat zonalarining natijadorligini oshirish uchun har bir hudud bo'yicha alohida "sanoat ixtisoslashuvi xaritasi"ni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, qishloq xo'jaligi xomashyosiga boy hududlarda mahsulotlarni qayta ishlash va qadoqlash yo'nalishlarini rivojlantirish, transport yo'llariga yaqin hududlarda logistika xizmatlari va eksportga yo'naltirilgan yengil sanoat tarmoqlarini kengaytirish, mehnat resurslari salohiyati yuqori hududlarda esa mehnat sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish mumkin. Bunday yondashuv investitsiyalarning maqsadli va samarali joylashtirilishiga xizmat qiladi hamda hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutlarni bosqichma-bosqich qisqartirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxoro viloyatida erkin iqtisodiy zonalar va sanoat zonalarini hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim mexanizmi sifatida shakllanmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik sanoat zonalarini loyihalar soni, investitsiya hajmi, ishlab chiqarish, eksport va bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha yetakchi o'rin egallaydi. Yoshlar sanoat zonalarini esa iqtisodiy ko'rsatkichlari nisbatan kichik bo'lishiga qaramay, ijtimoiy bandlikni ta'minlash va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqola natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, eksport salohiyatini faqat Kogon tumani va ayrim markazlar bilan cheklamasdan, boshqa tumanlarda ham eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni shakllantirish maqsadga muvofiq; ikkinchidan, sanoat zonalarini nisbatan sust rivojlangan hududlarda infratuzilma loyihalarini jadallashtirish lozim; uchinchidan, YOSZlarda biznes-inkubator, marketing, sertifikatlashtirish va eksportga tayyorlash xizmatlarini kuchaytirish zarur; to'rtinchidan, investitsiya samaradorligini baholashda faqat kapital hajmi emas, balki bir loyiha hisobiga yaratilgan ish o'rinlari, eksport

6 Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari. Ishlab chiqarish mlrd so'mda, eksport mln AQSH dollarida berilgan.



ulushi va ishlab chiqarish barqarorligi ham inobatga olinishi kerak.

Umuman olganda, Buxoro viloyatida sanoat zonalarini orqali iqtisodiy o'sish izchil davom etmoqda. Shu bilan birga, ushbu o'sishning ayrim hududlarda yuqori darajada jamlangani hududiy diversifikatsiyani yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida eksport geografiyasini kengaytirish, yoshlar sanoat zonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish va sanoat zonalarini faoliyatini hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish viloyat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ijduvon erkin iqtisodiy zonasi. (n.d.). *Rasmiy veb-sayt ma'lumotlari*. Mavjud: <https://fezgijduvan.uz/uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2025). *Buxoro viloyati sanoat zonalarini bo'yicha statistik ma'lumotlar*. Mavjud: <https://www.stat.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017-yil 12-yanvar). "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida PF-4931-son Farmon.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2018-yil 10-iyul). "Buxoro-agro" erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-3843-son Qaror.
5. World Bank. (2020). *Special Economic Zones: An Operational Review of Their Impacts*. Washington, DC: World Bank Group.
6. Zeng, D. Z. (2015). *Global Experiences with Special Economic Zones: Focus on China and Africa*. Washington, DC: World Bank Group.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100